BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

AKBAROV FERUZ IKBOLOVICH

IQLIM O‘ZGARISHLARINI SURXONDARYO VILOYATI TABIIY FLORASIGA TA’SIRINI BAHOLASH

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 581.9:551.583 (043.3)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctorof philosophy (PhD)

Akbarov Feruz Ikbolovich
Iqlim o‘zgarishlarini Surxondaryo viloyati tabiiy florasiga ta’sirini baholash 3

Акбаров Феруз Икболович
Оценка воздействия климатических изменений на природную флору Сурхандарьинской области..... 21

Akbarov Feruz Ikbolovich
Assessment of the impact of climate change on the natural flora of Surkhandarya region 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 44

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

AKBAROV FERUZ IKBOLOVICH

IQLIM O‘ZGARISHLARINI SURXONDARYO VILOYATI TABIIY FLORASIGA TA’SIRINI BAHOLASH

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1240 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.


Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Olimjan Kaxxarovich Xojimatov** biologiya fanlari doktori, professor
	Xo‘janazarov O‘ktam Eshtemirovich biologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” fevral kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (81-raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “4” fevral kuni tarqatiladi.
(2026-yil “4” fevraldagi 20-raqamli reestr bayonnomasi).



B.A. Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, b.f.d., katta ilmiy xodim

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global iqlim o‘zgarishi hozirgi davrning eng muhim ekologik muammolaridan biri bo‘lib, u Yer yuzidagi tabiiy tizimlarning barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, kontinental iqlim sharoitiga ega O‘zbekiston, xususan Surxondaryo viloyati Yevrosiyodagi iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘rishi mumkin bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi (World Bank Group, 2021). Mazkur o‘zgarishlar nafaqat iqlim parametrlarida, balki butun ekotizim jumladan, tabiiy flora tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning eng boy floristik mintaqalaridan biri bo‘lib, iqlim parametrlaridagi keskin tebranishlar viloyatning floristik tarkibi va tuzilishida o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi va ayrim turlarni xavf ostida qoldirishi mumkin.

So‘ngi yillarda Respublikamizda olib borilayotgan flaristik tadqiqotlar rivojlanib, yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, biz O‘rta Osiyo hududida ilk bor tabiiy geografik hududlar florasini to‘r tizimli xaritalash asosida tadqiq qilishni boshladik (Tojibaev et al., 2022). Avval yirik daryo havzalari yoki tog‘ tizmalari miqyosida tavsiflangan floristik hududlar to‘r tizimli xaritalash yordamida 5x5 km hajmdagi indekslar darajasida detallashtirildi. Bu yondashuv katta ko‘lamdagi geobog‘langan ma’lumotlar bazasini shakllantirish, geofazoviy tahlillarni amalga oshirish va buning ortidan floraga tashqi omillar ta’sirini baholash imkonini berdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib dissertatsiya ishi shakllandi, hamda global iqlim o‘zgarishini tabiiy floraga ta’sirini mintaqaviy asoslarini tushunish va Surxondaryo tabiiy florasiga mansub o‘simliklarga fazoviy va vaqt oraliqlari bo‘yicha ta’sir darajasini baholashga yo‘naltirildi. Olingan ilmiy natijalar O‘zbekiston hamda Tog‘li O‘rta Osiyo florasining iqlim o‘zgarishlariga moslashuv mexanizmlarini chuqurroq tushunish va o‘rganish uchun fundamental ilmiy asos yaratadi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda qator muhim huquqiy va institutsional asoslar shakllangan. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida[1]” gi Prezident Farmonida atrof muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa’ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta’minlash va atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta’minlash kabi muhim vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-sonli “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmlarini aniqlash va davlat kadastrini shakllantirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, shuningdek 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli "2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni

strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni ijrosini taminlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqlim o‘zgarishining o‘simliklarga ta’sirini o‘rganish adabiyotlarda boy tarixga ega bo‘lib, bugungi kunda esa global ilmiy dolzarblik kasb etmoqda (Seth, 2014). Grinnell (1917) birinchi bo‘lib ko‘plab turlar areallarining geografik chegaralanishida iqlimiy omillar muhim rol o‘ynashini asoslab bergan. XX asr oxirlarida inson faoliyati natijasida issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi iqlim o‘zgarishini tezlashtirdi va bioxilma-xillikka bo‘lgan xavfni kuchaytirdi (Parmesan, 2006; 2015; Oyebanji et al., 2021). Natijada, bu masalaga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hajmi va ko‘lami keskin ortdi (Parmesan, 2003; Urban, 2015). Hozirga kelib “climate change” va “vegetation” kalit so‘zlari bo‘yicha Web of Science bazasida 2 310 ta, Scopusda 10 274 ta ilmiy maqola mavjud. Google Scholar tizimida esa 2025-yil holatiga ko‘ra 3 million 240 mingdan ortiq ilmiy ishlar qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar mazkur yo‘nalishning jahon ilm-fanida eng faol tadqiq etilayotgan mavzulardan biri ekanini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, ilmiy tadqiqotlar geografik taqsimotida sezilarli nomutanosiblik mavjud: tadqiqotlarning asosiy qismi Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi, Osiyo va xususan Markaziy Osiyo hududlari esa iqlim flora munosabatlari bo‘yicha eng kam o‘rganilgan mintaqalar sirasiga kiradi (Parmesan, 2006; 2015; Urban, 2015). So‘nggi yillarda Xitoy (Weng and Zhou, 2006; Zhang et al., 2021; Chen J. et al.,2024; Luo et al., 2025; Ren et al., 2025; Xiang et al.,2025), Qozog‘iston (Dimeyeva., 2015) va Qirg‘iziston (Kulikov, 2017; Donbaeva, 2024) hududlarida alohida turlar bo‘yicha SDM (Bioclim, MaxEnt va boshqalar) modellaridan foydalangan holda ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular asosan global iqlim ssenariylariga tayangan holda prognoz xarakteridagi baholashlar bilan chegaralanadi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo florasi bo‘yicha so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ushbu global yo‘nalishning mintaqaviy javobi sifatida shakllanmoqda. Adilov B.A. (2021, 2022), Habibullaev B.S. (2022), Daminova N.E. (2023), Xoshimov X.R. (2023), Turginov O.T. (2024), Abdullaev va Akbarov (2024) hamda Akbarov F.I. (2021, 2022, 2024) kabi tadqiqotchilarning ishlarida ayrim endemik va noyob turlar arealining hozirgi va kelajakdagi tarqalish zonalari SDM modellar yordamida baholangan. Shuningdek, Shomurodov va boshqalar (2024), Khabibullaev va boshqalar (2022) ishlarida ayrim turlar populyatsiyalariga iqlim omillarining ta’siri, ularning xavf darajasi va konservatsion maqomi tahlil qilingan. Mavjud adabiyotlar tahlili muammoning bir qator muhim jihatlari hali yetarlicha yoritilmaganini ko‘rsatadi. Birinchidan, Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida iqlim o‘zgarishining flora tuzilmasiga ta’siri ko‘pincha faqat prognoz modellariga asoslangan holda baholangan bo‘lib, aniq vaqt oralig‘ida uzoq muddatli real kuzatuv ma’lumotlari bilan floristik o‘zgarishlarni

bevosita solishtirgan ishlar deyarli uchramaydi. Ikkinchidan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida turlar darajasida cheklangan bo‘lib, butun flora, yirik taksonomik birliklar (oilalar, turkumlar) yoki floristik hotspotlar darajasida kompleks tahlil hali amalga oshirilmagan. Uchinchidan, geobog‘langan gerbariy ma’lumotlari juda katta hajmda to‘plangan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha faqat floristik ro‘yxatlar tuzish yoki lokal turlar tarqalishini ko‘rsatishda foydalanilgan, iqlim ma’lumotlari bilan integratsiyalangan tahlil darajasiga yetkazilmagan. Mazkur dissertatsiya ana shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Surxondaryo viloyati florasi misolida 1981–2023-yillarga oid ERA5-Land va MERRA-2 ma’lumotlariga asoslangan haqiqiy iqlim va tuproq parametrlarini 56 mingdan ortiq geobog‘langan gerbariy yozuvlari bilan integratsiyalangan holda tahlil qilinadi. To‘r tizimli xaritalash, Consensus Mapping va Stacked Species Distribution Modeling (SSDM) yondashuvlaridan foydalanilib, flora, oila va turkumlar darajasidagi ekologik moslik, iqlim-flora munosabatlari va floristik hotspotlar aniqlanadi. Natijada, dissertatsiya Surxondaryo florasiga iqlim o‘zgarishining real, miqdoriy ta’sirini baholash bilan birga, Markaziy Osiyo uchun yangi metodik platforma va konservatsion tavsiyalarni taklif etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Botanika institutida bajarilgan Janubi-g‘ arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panj Oldi okruglari florasining to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi) (2021–2024 yy.) davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Surxondaryo florasiga iqlim o‘zgarishining ta’sirini baholash va floristik o‘zgarishlarni prognozlash.

Tadqiqotning vazifalari:

Asosiy iqlim faktorlarining (harorat, yog‘ingarchilik, tuproq harorati va namligi) ko‘p yillik tendensiyalarini tahlil qilish va iqlim o‘zgarishi ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi 1x1 km rezolyutsiyadagi analitik xaritalar tuzish;

Iqlim o‘zgarishi intensivligiga ko‘ra floristik birliklarning (oilalar, turkumlar, turlar) fazoviy tarqalishi, ularning barqarorligi va xavf darajasini baholash;

Geografik elementlar, hayotiy shakllar, botanik-geografik rayonlar va indekslar kesimida iqlim o‘zgarishining floraga ta’sir darajasini baholash;

Iqlim o‘zgarishlarining o‘simliklarning o‘sish muhiti qulayligiga (suitable habitats) ta’sirini modellashtirish va vaqt bo‘yicha dinamikasini tahlil qilish;

Stacked Species Distribution Modeling (SSDM) asosida Surxondaryo florasi uchun biologik xilma-xillik markazlarini (hotspot) aniqlash;

Tadqiqotning obyekti. Surxondaryo tabiiy florasining yuksak o‘simliklari va ularning iqlim o‘zgarishlari kontekstidagi holati.

Tadqiqotning predmeti. Surxondaryo florasi yuksak o‘simliklari va iqlim parametrlari o‘rtasidagi munosabatlar mexanizmi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda trend tahlili, statistik taqqoslash, asosiy komponentlar tahlili (PCA), farq o‘zgarishi (Delta Change Method), iqlimiy javob gradienti (climate response gradient analysis) hamda Stacked Species Distribution Models (SSDM) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyatida kuzatilayotgan global iqlim o‘zgarishining mintaqaviy xususiyatlari ilk bor 1×1 km aniqlikda kompleks baholangan va asosiy iqlim indikatorlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini ko‘rsatuvchi analitik xaritalar tuzigan;

Iqlim o‘zgarishining tabiiy floraga ta’siri ilk bor oila, turkum va tur darajasida aniqlangan va ularga bo‘lgan xavf darajasi iqlim omillari kesimida kompleks tarzda baholangan;

Geografik elementlar, botanik-geografik rayonlar va indekslar florasining global isish va qurg‘oqchilikka nisbatan ta’sirchanlik darajasi aniqlangan, natijalar mintaqaviy iqlim o‘zgarishining real indikatori sifatida ko‘rsatilgan;

Birinchi marotaba Surxondaryo viloyati tabiiy florasiga iqlim o‘zgarishining ta’sirini aks ettiruvchi, real vaqt ma’lumotlariga asoslangan yuqori rezolyutsiyadagi SSDM prognoz modellari ishlab chiqilgan;

Consensus habitat suitability xaritalari asosida Surxondaryo florasining biologik xilma-xillik markazlari (floristik hotspotlar) ilk bor aniqlanib, turlar uchun ekologik moslikning eng yuqori konsentratsiyalashgan hududlari belgilangan;

Iqlim o‘zgarishi va flora o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni raqamli modellar yordamida baholash uchun yangi konseptual yondashuv taklif etilgan;

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati hududida 1981–2023 yillar davomida kuzatilgan asosiy iqlim indikatorlari havo harorati, yog‘ingarchilik, tuproq harorati va tuproq namligi bo‘yicha ERA5-Land, MERRA-2 hamda CHIRPS xalqaro platformalaridan jami 6 million 400 mingga yaqin iqlim ma’lumotlari yig‘ilgan va ular asosida raqamli ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan.

1981–2023 yillar davomida Surxondaryo viloyatida kuzatilgan havo harorati, yog‘ingarchilik, tuproq harorati va tuproq namligining o‘zgarish tendensiyalarini aks ettiruvchi analitik xaritalar yaratilgan.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida global isish va qurg‘oqchilikning kuchli bosimiga uchrayotgan floristik birliklar aniqlangan va flora tarkibi xavf darajasiga ko‘ra klassifikatsiyalangan.

Hudud florasining to‘liq tarkibi, shuningdek polimorf oilalar, polimorf turkumlar va endem turlar uchun real vaqt ma’lumotlariga asoslangan yuqori aniqlikdagi SSDM prognoz modellari ishlab chiqilgan.

Surxondaryo tabiiy florasi uchun ekologik moslikning eng yuqori konsentratsiyalashgan hududlari aks ettirilgan consensus habitat suitability xaritalari yaratilgan.

Iqlim o‘zgarishi va flora o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni raqamli modellar yordamida baholash uchun yangi konseptual yondashuv taklif etilgan.

Olingan ilmiy natijalar O‘zbekiston hamda Tog‘li O‘rta Osiyo florasining iqlim o‘zgarishlariga moslashuv mexanizmlarini chuqurroq tushunish va o‘rganish uchun fundamental ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi omillarga asoslanadi: ma’lumotlar bazasining kengligi va sifati (gerbariy ma’lumotlari zamonaviy ilmiy

yondashuvlarga muvofiq yig‘ilgan, iqlim ko‘rsatkichlari esa yuqori vaqt va fazoviy aniqlikka ega xalqaro tan olingan bazalardan olingan), qo‘llanilgan metodlarning zamonaviyligi (Bioclim, SSDM, consensus mapping, GIS), natijalarni tekshirish va solishtirish jarayonlari (turli manbalar va modellar kesimida o‘zaro taqqoslangan), statistik tahlil va validatsiya (AUC, TSS, Kappa kabi ko‘rsatkichlar yordamida baholangan) hamda amaliy natijalar bilan muvofiqligi (modellashtirish natijalari hududiy floristik kuzatuvlar bilan solishtirilib, tasdiqlangan). Shu bilan birga, tadqiqot natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan hamda mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan. Tadqiqot materiallari asosida tayyorlangan ilmiy maqolalar nufuzli jurnallarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda Surxondaryo florasining o‘ziga xos xususiyatlari zamonaviy modellashtirish usullari (Bioclim, SSDM, consensus mapping, GIS) asosida tahlil qilingan, hamda iqlim o‘zgarishining o‘simliklarning tarqalishiga ta’siri kompleks o‘rganilgan. Olingan natijalar esa O‘zbekiston va Tog‘li O‘rta Osiyo florasining iqlim o‘zgarishiga javob reaksiyalarini baholashda fundamental ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda iqlim va tuproq sharoitlaridagi o‘zgarishlarning o‘simlik turlarining geografik tarqalishi hamda yashash muhitiga ta’sir mexanizmi aniqlangan, yuqori rezolyutsiyadagi prognoz modellari ishlab chiqilgan. Ushbu natijalar hududiy flora resurslarini muhofaza qilish, xavf ostidagi turlarni monitoring qilish, yashash muhitini barqarorlashtirish va mintaqaviy moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ular ekologik oqibatlarni baholash va ta’lim jarayonida qo‘llash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqlim o‘zgarishlarini Surxondaryo viloyati tabiiy florasiga ta’sirini baholash tadqiqotlari doirasida:

Surxondaryo viloyati tabiiy florasiga mansub 187 turning 1005 ta gerbariy na’munalariga tegishli ma’lumotlar Global bioxilma-xillik ma’lumotlari tizimiga (www.gbif.org, GBIF) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasi sertifikati, 2025-yil 30-may № 040 sonli guvohnomasi). Natijalar, GBIF portalining o‘simliklar bazasini boyitishga xizmat qilgan.

Surxondaryo viloyati tabiiy florasida tarqalgan 117 ta turning 200 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob’yekti fondiga taqdim etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 30-maydagi №4/1255-1336-son ma’lumotnomasi). Natijalar, O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob’yekti fondining O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta respublika

va 2 ta xorijiy (1 ta Scopus va WOS) bazalarida indekslangan) jurnallarda hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 5 tasi nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari”** deb nomlanadi. Uning birinchi bo‘limida tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, mintaqadagi mavjud ilmiy bo‘shliqlar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan yechim va takliflar yoritilgan. Bobning ikkinchi bo‘limida esa tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar, algoritmlar va dasturiy ta’minot vositalari batafsil taqdim etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Surxondaryo viloyatida asosiy iqlim faktorlarining ko‘p yillik o‘zgarish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda Surxondaryo viloyatida 1981–2023 yillarda kuzatilgan asosiy iqlim faktorlari (havo harorati, yog‘ingarchilik, tuproq harorati va namligi) dinamikasi Jahon banki, O‘zgidromet hamda ERA5-Land, MERRA-2 va CHIRPS xalqaro bazalaridan olingan 6 352 605 ta ma’lumotlar asosida tahlil qilingan, natijalar global va mintaqaviy iqlim o‘zgarish jarayonlari bilan qiyosiy baholangan.

Bobning birinchi bo‘limida Surxondaryo viloyatida 1981–2023 yillar davomida yillik o‘rtacha haroratning o‘zgarish dinamikasi o‘rganildi. Analitik tahlillar natijasida Jahon banki ma’lumotlari bo‘yicha ushbu davrda harorat 1,4 °C ga, O‘zgidromet kuzatuvlari bo‘yicha esa 1,9 °C ga ortgani aniqlangan. ERA5-Land va MERRA-2 xalqaro reanaliz bazalaridan olingan ma’lumotlar ham viloyatda haroratning barqaror o‘sish tendensiyasini tasdiqlaydi. Isish jarayoni Sangardak–To‘palang botanik-geografik rayonida eng jadal bo‘lib, 18,6–19,6 % gacha yetgan. Eng yuqori ko‘rsatkichlar esa 3300–3900 m balandliklarda (40 % dan ortiq) qayd etilib, bu hududda global isish tendensiyasiga yaqqol yaqqol namoyon bo‘ladi. Global isishning baland hududlarda yanada jadal namoyon bo‘lishi “Elevation-dependent warming” (balandlikka bog‘liq isish) kontseptsiyasi bilan ilmiy jihatdan tasdiqlangan (Pepin et al., 2015).

Ikkinchi bo‘limida Surxondaryo viloyatida 1981–2023-yillar oralig‘ida atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori, ularning o‘zgarish tendensiyalari hamda tebranish (variatsion) xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Yillik yog‘inlarning qisqarishi viloyat hududining 90 % dan ortig‘ida qayd etilgan, umumiy kamayish 6–60 % oralig‘ida. Eng katta pasayish Sho‘rchi (37,6 %) va Termizda (32,4 %), eng

kichigi esa Denov (6 %) stansiyasida kuzatilgan. Botanik-geografik rayonlar kesimida Surxon–Sherabod va Bobotog‘ eng zaif hududlar bo‘lib, 20–24 % gacha qisqarish qayd etilgan, Boysun rayonida esa minimal o‘zgarish kuzatilgan. Bu jarayon global prognozlarga muvofiq bo‘lib, 21-asr oxiriga kelib o‘rta va past kengliklarda yog‘ingarchilikning 20 % dan ko‘proq kamayishi va subtropik mintaqalarda qurg‘oqchilikning kuchayishi kutilmoqda (IPCC, 2008; Polade et al., 2017).


Bobning uchinchi bo‘limida tuproq haroratining ko‘p yillik va fazoviy o‘zgaruvchanligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari tuproq haroratining so‘nggi 43 yil davomida viloyat bo‘ylab o‘rtacha 2,3 °C (12,0 %) (O‘zgidromet), 2,2 °C (15,4 %) (ERA5-Land) va 2,1 °C (17,0 %) (MERRA-2) darajaga ortganini ko‘rsatadi, bu esa Germaniya (Dorau et al., 2022) va Xitoy (Zhang et al., 2016) kabi boshqa mintaqalarda qayd etilgan tendensiyalarga parallel, global iqlim o‘zgarish jarayonlarining hududiy ifodasini tasdiqlaydi. Tuproq haroratining ortishi havo haroratining oshishiga nisbatan tezroq yuz bermoqda (García-García et al., 2023). Bu jarayon Surxondaryo viloyatida ham o‘z isbotini topdi. Masalan, Sangardak-To‘palang botanik-geografik rayonida havo harorati o‘zgarishi 18,6 % ni tashkil etsa, tuproq harorati bu hududda 26,3 % gacha ortgan.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida tuproq namligining ko‘p yillik o‘zgarishi va fazoviy tendensiyalari tahlil qilingan. Unga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida 1981–2023 yillar oralig‘ida tuproq namligining muntazam ravishda qisqarib borgani kuzatildi, ko‘rsatkichlar ERA5-Land bo‘yicha 15,5 %, MERRA-2 ma’lumotlariga ko‘ra esa 14,9 % ni tashkil etadi. Tuproq namligining qisqarishi viloyatning tekislik va adir hududlarida (266–1100 m) eng yuqori bo‘lib, qiymatlar 20 % dan ortiq, bu jarayon Shurxon–Sherabod botanik-geografik rayonida yaqqol namoyon bo‘lgan. Martin Hirschi (2025) tadqiqotlariga ko‘ra, 2000–2022 yillar davomida yer yuzasining 49,3 % (ERA5-Land) va 44,5 % (MERRA-2) qismida tuproqning sirt va ildiz zonalarida qurish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, namlikning pasayishi mos ravishda 20,6 % va 21,1 % ni tashkil etgan. Surxondaryo viloyatida qayd etilgan tuproq namligining qisqarishi ushbu global ko‘rsatkichlardan, shuningdek Yevropaning O‘rta yer dengizi havzasi, Qora va Kaspiy dengizi atrofi, Markaziy Osiyo, Sibir, AQSH va Kanada preriyalari, Janubiy Amerika, Afrika hamda shimoli-g‘arbiy Avstraliyadagi ko‘rsatkichlardan pastroq darajada yuz bermoqda (Hirschi et al., 2025).

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“Iqlim o‘zgarishining Surxondaryo tabiiy florasiga taksonomik va geografik ta’siri”** deb nomlangan. Ushbu bobda viloyat florasiga mansub o‘simliklarning 90 % dan ortig‘i 1981–1990 yillarga nisbatan 2021–2023 yillarda qaysidur darajada o‘zgargan iqlimiy sharoitlarga moslashishga majbur bo‘layotgani qayt etilgan. Tadqiqot natijalari tog‘ hududlarida haroratning ortishi, tekisliklarda esa qurg‘oqchilik va tuproq namligining pasayishi asosiy xavf omillari ekanini ko‘rsatgan. Eng yuqori xavf darajasi esa endem turlar populyatsiyalarida kuzatilgan.


Bobning birinchi bo‘limida iqlim o‘zgarishining floristik birliklarga ta’siri va xavf darajasi umumiy flora, polimorf oilalar, polimorf turkumlar, keng tarqalgan

dominant turlar hamda endem turlar kesimida tahlil qilingan. Surxondaryo florasiga iqlim o‘zgarishining umumiy ta’siri ERA5-Land bo‘yicha 15,3 %, MERRA-2 va CHIRPS ma’lumotlariga ko‘ra 16,5 % ga baholandi. Polimorf oilalar populatsiyalari mavjud hududlarda qayd etilgan iqlim o‘zgarishi intensivligi viloyat florasining umumiy ko‘rsatkichlariga nisbatan ERA5-Land ma’lumotlarida 0,2 %, MERRA-2 ma’lumotlarida esa 0,4 % ga past. Polimorf turkumlarda ushbu ko‘rsatkichlar aksincha yuqoriroq bo‘lib, ERA5-Land modelida 0,1 %, MERRA-2 modelida esa 1,0 % ni tashkil etadi. Eng keng tarqalgan dominant turlar ham viloyat florasining o‘rtacha qiymatlaridan 0,1–0,2 % yuqori intensivlik ko‘rsatgan. Shu bilan birga, endem turlar populatsiyalarida qayd etilgan iqlimiy transformatsiya jarayonlari viloyat florasining umumiy ko‘rsatkichlaridan 4,2 % ga yuqori bo‘lib, bu ularning global iqlim o‘zgarishiga nisbatan eng sezgir guruh ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar Surxondaryo florasida iqlimiy o‘zgarishlarning turli taksonomik darajalarda differensial ta’sir ko‘rsatishini va endem turlar populyatsiyalarining ekologik barqarorligi uchun xavf darajasi yuqoriligini ko‘rsatadi. Polimorf oilalar doirasida Amaranthaceae vakillari iqlim o‘zgarishi eng yuqori darajada sodir bo‘layotgan hududlarda uchraydi (ERA5-Land – 15,9 %, MERRA-2 – 17,3 %). Aksincha, eng past darajadagi o‘zgarishlar ERA5-Land bo‘yicha Fabaceae (13,9 %), MERRA-2 bo‘yicha esa Brassicaceae (15,5 %) turlari mavjud hududlarda kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Polimorf oilalar bo‘yicha iqlim o‘zgarishi intensivligi

Polimorf turkumlar orasida *Scutellaria* turkumiga mansub turlar iqlim o‘zgarishining eng yuqori darajadagi ta’siriga duch kelmoqda va bu natija ERA5-Land va MERRA-2 modellarida ham qayd etildi. *Gagea* populatsiyalari mavjud hududlarda esa iqlim o‘zgarishi eng past darajada qayd etilib, ERA5-Land bo‘yicha 14,3 % va MERRA-2 bo‘yicha 15,9 % ga baholandi (2-rasm).



2-rasm. Polimorf turkumlar bo‘yicha iqlim o‘zgarishi intensivligi

Endem turlarning iqlim o‘zgarishi darajasi bo‘yicha hududiy taqsimlanishi, floradagi eng keng tarqalgan turlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirilganda, ERA5-Land bo‘yicha 4 % va MERRA-2 bo‘yicha 4,1 % yuqori qiymat hosil qiladi. Umumiy flora tarkibida iqlim transformatsiyasining eng yuqori darajasi kuzatilgan *Lagochilus botschantzevii* va *Seseli merculowiczii* ham endem turlar qatoriga kiradi. Har ikkala model (ERA5-Land va MERRA-2) natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqlim o‘zgarishining endem turlarga ta’siri balandlik gradienti bo‘yicha eng yuqori darajada 2301–2800 m diapazonda, eng past darajada esa 1301–1800 m oraliqda o‘suvchi turlarda kuzatilmoqda (1-jadval). Shu bilan birga, 1301–1800 m balandlik oralig‘i endem turlar uchun xilma-xilligi eng yuqori diapazon bo‘lib, bu yerda 29 tur (46 %) qayd etilgan, 2301–2800 m oralig‘ida esa 14 tur (22,2 %) populatsiyasi mavjud (Akbarov, 2022).

1-jadval

Balandlik gradienti bo‘yicha iqlim o‘zgarishining endem turlarga ta’siri

Change % ERA5-Land						
Alt. (m)	300–800	801–1300	1301–1800	1801–2300	2301–2800	2801–3364
Valid	48	134	131	45	24	14
Mean	18.7	21.3	16.5	18.7	23.8	18.9
Std.Deviation	5.6	11.0	3.1	5.6	9.3	3.4
Minimum	11.8	11.5	11.0	11.8	11.7	11.7
Maximum	36.9	75.6	26.0	36.9	47.5	25.0
Change % MERRA-2						
Valid	48	134	131	45	24	14
Mean	19.6	23.5	17.8	19.3	25.2	21.0
Std.Deviation	8.7	9.07	4.0	6.7	13.3	2.6
Minimum	0.0	11.2	7.7	5.8	17.1	13.9
Maximum	41.0	41.8	26.4	36.7	85.4	23.4

Bobning ikkinchi bo‘limida o‘simliklarning hayotiy shakllari, geografik elementlari, botanik-geografik rayonlar va indekslar florasi kesimida iqlim


o‘zgarishining ta’siri tahlil qilingan. Hamefitlar iqlim o‘zgarishi eng intensiv sodir bo‘layotgan hududlarda, kriptofitlar nisbatan barqaror maydonlarda o‘sayotgan hayotiy shakllar sifatida qayd etildi. Geografik elementlar kesimida eng katta o‘zgarish Tog‘lio‘rtaosiyo arealiga to‘g‘ri kelib, bu hududda havo va tuproq haroratining ortishi o‘simliklar uchun asosiy xavf omili ekanligi aniqlandi. Global floristik hududlarga oid turlar esa qurg‘oqchilik va yog‘ingarchilikning keskin kamayishi bilan bog‘liq xavflarga ko‘proq duch kelmoqda. Relef xususiyatidan kelib chiqib hududining o‘rtacha balandligi eng yuqori bo‘lgan Sangardak-To‘palang (1654 m) rayoni florasi havo va tuproq haroratining isishidan, maydonining katta qismi tekisliklardan tarkib topga Surxon-Sherabod (399 m) florasi esa namlik miqdorining kamayishidan aziyat chekmoqda (3-rasm).

Shuningdek iqlim o‘zgarishi eng yuqori darajasi kuzatilgan 10 ta indek 2422–3496 m balandlik oralig‘ida joylashgan bo‘lib, ushbu indekslarda mavjud o‘simliklar uchun asosiy xavf ham havo va tuproq haroratining ortishidan yuzaga keladi. Ushbu indekslarda havo haroratining isish darajasi 46,7 % (MERRA-2) dan 79,4 % (ERA5-Land) gacha yetadi. Kavkaz tog‘larining alp zonasida (Rossiya) ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha 59 % gacha o‘zgaruvchanlik aniqlangan (Soudzilovskaia et al., 2013). Shu bilan birga, mazkur indekslar florasida tuproq namligining kamayishi 12–13 % ni tashkil etadi, bu esa Yevropaning O‘rta yer dengizi mintaqasida qayd etilgan qiymatlardan (14,1–16,3 %) (Fader et al., 2020) pastroqdir. Tadqiqot natijalari Surxondaryo florasida iqlim o‘zgarishining keng qamrovli va differensial ta’sirini ko‘rsatdi. Eng katta xavfni endem turlarning populyatsiyalariga to‘g‘ri kelishi mintaqa bioxilma-xilligini saqlashda ularni alohida e’tiborga olish zarurligini anglatadi.

Dissertatsiyaning “**Iqlimiy o‘zgarishlarning o‘simliklarning o‘sish muhiti qulayligiga (suitable habitats) ta’siri va uning vaqt bo‘yicha dinamikasi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Surxondaryo viloyati florasining to‘liq taksonomik tarkibi uchun real vaqt ma’lumotlariga asoslangan yuqori aniqlikdagi Stacked Species Distribution Models (SSDM) prognoz modellari ishlab chiqilgan. Ushbu modellar yordamida o‘sish muhiti qulayligining (suitable habitats) vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi 1981–1990 va 2021–2023 yillar kesimida umumiy flora, polimorf oilalar, polimorf turkumlar va endemik turlar bo‘yicha tahlil qilingan. Shuningdek bu bobda Surxondaryo tabiiy florasi uchun ekologik moslikning eng yuqori konsentratsiyalashgan hududlari consensus habitat suitability xaritalari asosida aniqlanib, 1981–1990 hamda 2021–2023 yillar oralig‘ida floristik hotspotlarda yuz bergan o‘zgarishlar umumiy flora, polimorf oilalar, polimorf turkumlar va endemik turlar darajasida baholangan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida Surxondaryo florasida o‘sish muhiti qulayligining (suitable habitats) sistematik birliklar bo‘yicha o‘zgarishi tahlil qilingan. Turlar tarqalishi va yashab qolishining asosiy mexanizmlaridan biri ularning o‘sishi hamda ko‘payishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarning mavjudligidir. Mazkur sharoitlar esa, asosan, tuproq xususiyatlari va iqlim ko‘rsatkichlari kabi abiotik determinantlarga bog‘liq (Peterson et al., 2002). Shuning uchun tadqiqotda 1981–1990 yillarga oid iqlim, balandlik va tuproq parametrlariga asoslanib,

o‘simliklar uchun mos yashash hududlari (suitable habitats) ilk bor SSDM metodi asosida modellashtirildi va ushbu natijalar 2021–2023 yillardagi atrof-muhit sharoitlari bilan taqqoslab tahlil qilindi.



3-rasm. Botanik-geografik rayonlar florasiga iqlim o‘zgarishi ta’sirining asosiy iqlim omillari kesimidagi intensivligi

SSDM yondashuvining joriy etilishi tadqiqotning metodologik ustunlikni ta’minladi. 1981–1990 yillarga oid modellashtirish natijalariga ko‘ra, Surxondaryo viloyati tabiiy florasida tarqalgan o‘simliklar uchun yashash muhitining o‘rtacha qulayligi ERA5-Land ma’lumotlari asosida 63,1 %, MERRA-2 ma’lumotlari asosida esa 62,7 % ni tashkil etgan. Ammo, 2021–2023 yillar uchun yaratilgan modellashtirish natijalari bu ko‘rsatkichlarning 61,5 % (ERA5-Land) va 60,9 % (MERRA-2) gacha pasayishini ko‘rsatdi. So‘nggi 43 yildagi iqlim o‘zgarishi va global isish fonida Surxondaryo viloyati florasida o‘simliklar uchun yashash muhitining o‘rtacha qulayligi ERA5-Land modelida 1,6 %, MERRA-2 simulyatsiyalarida esa 1,8 % ga yomonlashgan. ERA5-Land modeli natijalarida yashash muhiti 34,5 % turlar uchun yaxshilangan, 65,5 % uchun esa qisqargan. MERRA-2 bo‘yicha 32,2 % turda ijobiy, 67,8 % turda salbiy o‘zgarish kuzatilgan. Taqqoslash uchun, Yevropada muhofaza etiladigan hududlar florasi o‘simliklarining 58 ± 2,6 foizi 2080 yilga borib qulay yasash sharoitlarini yo‘qotishi tahmin qilinmoqda (Araújo et al., 2011). Tadqiqot doirasida 2191 ta turga oid 56 675 ta o‘sish nuqtasi tahlil qilingan. ERA5-Land modeli natijalarida 33 879 nuqtada iqlim o‘zgarishiga salbiy, 22 796 nuqtada esa ijobiy javob qayd etilgan. MERRA-2 modeli esa 34 484 salbiy va 22 191 ijobiy natija ko‘rsatgan. Model natijalariga ko‘ra, Amaranthaceae oilasida yashash muhiti qulayligi ERA5-Land bo‘yicha -9 %, MERRA-2 bo‘yicha esa -11 % ga kamaygan bo‘lib, bu yetakchi oilalar ichida eng yuqori salbiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Fabaceae esa polimorf oilalar orasida qulay yashash sharoitlari eng kam darajada qisqargan oila sifatida ajralib turadi.

Iqlim o‘zgarishlari sharoitida yetakchi turkumlar uchun yashash muhiti qulayligi ERA5-Land bo‘yicha –3,3 %, MERRA-2 bo‘yicha esa –4,2 % ga


pasaygan. Polimorf 10 ta turkumning 8 tasida salbiy, faqat *Gagea* va *Cousinia* turkumlarida ijobiy dinamika kuzatilgan. Ayniqsa *Gagea* har ikkala modelda ham iqlim o‘zgarishidan eng kam zarar ko‘rgan va ijobiy dinamika (≈ +2 %) kuzatilgan turkum sifatida ajralib turadi. Bunday barqarorlikga turkumning erta fenologik faolligi, ya’ni o‘simliklarning ekstremal haroratlar va qurg‘oqchilik davrlarining ta’siriga kamroq duch kelishi sabab bo‘lishi mumkin (Footitt et al., 2021). *Oxytropis* turlarida eng yuqori salbiy o‘zgarish qayd etilgan. Bu turkum asosan tog‘ va yaylov mintaqalariga xos bo‘lib (Brysting et al., 2004; Singh et al., 2023), iqlim o‘zgarishiga sezuvchanligi yuqori (Rosbakh, 2014). Surxondaryo florasida 905–3291 m balandlik oralig‘ida tarqalib, o‘rtacha balandlik 1918 m ni tashkil qiladi. Populyatsiyalarning katta qismi iqlim o‘zgarishi eng intensiv kuzatilgan balandliklarda joylashgan.

